



## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**XORAZM VILOYATIDAGI  
KORXONA VA TASHKILOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**

*2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya Vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bунyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2024- yil 1- fevral holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 26 738 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 23 489 ta).

## **Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylumotlar**

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*

**Faoliyat ko‘rsatayotgan**

**Ro‘yxatdan o‘tgan**



# 1- BO'LIM. XORAZM VILOYATI BO'YICHA KORXONA VA TASHKIOTLARNING SONI


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2024- yil yanvar oyida, birlikda


### Yillar kesimida soni

2024		<b>392</b>
2023		<b>447</b>
2022		<b>305</b>
2021		<b>428</b>
2020		<b>591</b>

### Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 87 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha oxirgi uch yil mobaynida yangi tashkil etilgan ma'suliyati cheklangan jamiyatlar soni 108 taga, xususiy korxonalar - 23 taga ko'paygan.

### Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>73</b>	1,4%	Xiva t.	<b>25</b>	1,3%
Urganch t.	<b>38</b>	1,3%	Yangiariq t.	<b>23</b>	1,5%
Hazorasp t.	<b>37</b>	2,3%	Qo'shko'pir t.	<b>22</b>	1,0%
Bog'ot t.	<b>36</b>	2,0%	Xiva sh.	<b>20</b>	1,0%
Gurlan t.	<b>31</b>	1,7%	Yangibozor t.	<b>17</b>	1,4%
Xonqa t.	<b>30</b>	1,5%	Tuproqqal'a t.	<b>15</b>	2,1%
Shovot t.	<b>25</b>	1,5%			


2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda

## Yillar kesimida soni

2024	26 738
2023	28 471
2022	25 234
2021	22 299
2020	19 151

## Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)

123,0% 116,4% 113,2% 112,8% 93,9%



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

2024- yil 1- fevral holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan 7 587 taga oshganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o‘sishi bilan ifodalash mumkin: savdoda – 5 173 tadan 9 096 taga (o‘sish 3 923 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 1 738 tadan 2 638 taga (o‘sish 900 ta), sanoatda – 3 171 tadan 3 962 taga (o‘sish 791 ta).





## Hududlar kesimida

Urganch sh.	5 277	Gurlan t.	1 808
Urganch t.	2 884	Shovot t.	1 687
Qo‘shko‘pir t.	2 195	Hazorasp t.	1 636
Xiva sh.	2 030	Yangiariq t.	1 515
Xonqa t.	2 013	Yangibozor t.	1 254
Xiva t.	1 871	Tuproqqal‘a t.	725
Bog‘ot t.	1 843		

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

2024- yil yanvar oyida, birlikda

## Yillar kesimida soni

2024		383
2023		443
2022		289
2021		417
2020		588

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida, yildan-yilga ularning investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoxda. 2024- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 383 ta bo‘lib, shundan:


- mikrofirma va kichik korxonalar - 380 tani;
- yirik korxonalar - 3 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	<b>66</b>	1,4%	Xiva t.	<b>24</b>	1,4%
Urganch t.	<b>37</b>	1,4%	Yangiariq t.	<b>23</b>	1,7%
Hazorasp t.	<b>37</b>	2,6%	Qo‘shko‘pir t.	<b>22</b>	1,1%
Bog‘ot t.	<b>36</b>	2,2%	Xiva sh.	<b>20</b>	1,1%
Gurlan t.	<b>31</b>	1,9%	Yangibozor t.	<b>17</b>	1,6%
Xonqa t.	<b>30</b>	1,7%	Tuproqqał‘a t.	<b>15</b>	2,5%
Shovot t.	<b>25</b>	1,7%			

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Savdo



Tashish va saqlash



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- fevral holatiga 23 625 taga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 146,9 foizni tashkil etdi (7 546 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,5 foiz, sanoat – 16,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,1 foiz, qurilish – 7,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,0 foiz, tashish va saqlash – 4,5 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,3 foiz, boshqa turlari – 11,0 foiz.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	<b>4 582</b>	Gurlan t.	<b>1 592</b>
Urganch t.	<b>2 617</b>	Shovot t.	<b>1 454</b>
Qo'shko'pir t.	<b>1 972</b>	Hazorasp t.	<b>1 409</b>
Xiva sh.	<b>1 876</b>	Yangiariq t.	<b>1 337</b>
Xonqa t.	<b>1 791</b>	Yangibozor t.	<b>1 089</b>
Xiva t.	<b>1 676</b>	Tuproqqal'a t.	<b>605</b>
Bog'ot t.	<b>1 625</b>		

*2024- yil yanvar oyida, birlikda*



### Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

2024- yil yanvar oyida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 110 tadan 125 taga (o‘sish 15 taga), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 14 tadan 31 taga (o‘sish 17 taga), qurilishda – 10 tadan 24 taga (o‘sish 14 taga) ko‘paydi.

### Hududlar kesimida


Urganch sh.	<b>66</b>	<b>1,5%</b>	Xiva t.	<b>24</b>	<b>1,4%</b>
Urganch t.	<b>36</b>	<b>1,4%</b>	Yangiariq t.	<b>23</b>	<b>1,7%</b>
Hazorasp t.	<b>36</b>	<b>2,6%</b>	Qo‘shko‘pir t.	<b>22</b>	<b>1,1%</b>
Bog‘ot t.	<b>36</b>	<b>2,2%</b>	Xiva sh.	<b>20</b>	<b>1,1%</b>
Gurlan t.	<b>31</b>	<b>2,0%</b>	Yangibozor t.	<b>17</b>	<b>1,6%</b>
Xonqa t.	<b>29</b>	<b>1,6%</b>	Tuproqqal‘a t.	<b>15</b>	<b>2,5%</b>
Shovot t.	<b>25</b>	<b>1,7%</b>			

2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda

### Yillar kesimida soni

<b>2024</b>		<b>23 489</b>
<b>2023</b>		<b>25 190</b>
<b>2022</b>		<b>22 043</b>
<b>2021</b>		<b>19 180</b>
<b>2020</b>		<b>15 986</b>

### Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (19,3 foiz), Urganch tumani (11,1 foiz), Qo‘shko‘pir (8,4 foiz), Xiva shahri (8,0 foiz) va Xonqa (7,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.


### Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>4 530</b>	Gurlan t.	<b>1 589</b>
Urganch t.	<b>2 601</b>	Shovot t.	<b>1 448</b>
Qo‘shko‘pir t.	<b>1 965</b>	Hazorasp t.	<b>1 400</b>
Xiva sh.	<b>1 872</b>	Yangiariq t.	<b>1 329</b>
Xonqa t.	<b>1 782</b>	Yangibozor t.	<b>1 084</b>
Xiva t.	<b>1 670</b>	Tuproqqal‘a t.	<b>602</b>
Bog‘ot t.	<b>1 617</b>		

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**  
*2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**


Gurlan t.	399
Qo'shko'pir t.	314
Urganch t.	304
Xonqa	282
Xiva t.	242
Yangiariq t.	199
Bog'ot t.	196
Shovot	166
Yangibozor t.	166
Tuproqqal'a t.	110
Hazorasp t.	92
Xiva sh.	85
Urganch sh.	83



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

**Baliq ovlash va akvakultura**




**O'rmonchilik va yog'och  
tayyorlash**

**Dehqonchilik va  
chorvachilik, ovchilik va  
bu sohalarda xizmat  
ko'rsatish**

*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>743</b>
Urganch t.	<b>433</b>
Qo‘shko‘pir t.	<b>417</b>
Xonqa t.	<b>365</b>
Xiva t.	<b>285</b>
Xiva sh.	<b>267</b>
Shovot t.	<b>244</b>
Bog‘ot t.	<b>239</b>
Gurlan t.	<b>229</b>
Hazorasp t.	<b>219</b>
Yangiariq t.	<b>200</b>
Yangibozor t.	<b>183</b>
Tuproqqal‘a t.	<b>138</b>



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi besh yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish sur’ati 124,9 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 14,8 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,7 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 84,8 foiz), 0,5 foizini tog-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish sur’ati 95,2 foiz), 1,4 foizini suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish sur’ati 93,3 foiz) va 0,4 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash (o‘sish sur’ati 70,0 foiz) tashkil etgan.



2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>393</b>
Xiva t.	<b>247</b>
Urganch t.	<b>207</b>
Xiva sh.	<b>178</b>
Qo‘siko‘pir t.	<b>160</b>
Xonqa t.	<b>116</b>
Yangiariq t.	<b>92</b>
Shovot t.	<b>87</b>
Hazorasp t.	<b>62</b>
Bog‘ot t	<b>61</b>
Gurlan t.	<b>60</b>
Yangibozor t.	<b>58</b>
Tuproqqal‘a t.	<b>34</b>




Qurilish sohasining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 56,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 83,3 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 19,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 99,1 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 24,5 foiz ulushni va 72,2 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.


**339**

Fuqarolik  
obyektlarini qurish



**429**

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari



**987**


Bino va  
inshootlar qurish

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>1 658</b>
Urganch t.	<b>1 045</b>
Bog‘ot t.	<b>778</b>
Xiva sh.	<b>710</b>
Qo‘siko‘pir t.	<b>685</b>
Hazorasp t.	<b>651</b>
Shovot t.	<b>629</b>
Xiva t.	<b>575</b>
Xonqa t.	<b>570</b>
Yangiariq t.	<b>563</b>
Gurlan t.	<b>563</b>
Yangibozor t.	<b>452</b>
Tuproqqal‘a t.	<b>217</b>



Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 9 076 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 64,9 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 100,5 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishi 23,8 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 101,3 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishi 11,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 110,5 foizni tashkil etdi.

**1 030**

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**2 160**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


**5 906**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida

Urganch sh.	421
Xiva sh.	276
Urganch t.	167
Gurlan t.	102
Xonqa t.	101
Shovot	91
Bog'ot t.	84
Qo'shko'pir t.	83
Yangibozor t.	81
Xiva t.	79
Yangiariq t.	74
Hazorasp t.	57
Tuproqqal'a t.	41



2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 132,5 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosiy faoliyati hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 14,2 foiz ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,8 foiz ulushini tashkil etdi.

235

Yashash bo'yicha  
xizmatlar

1 422


Oziq- ovqat va  
ichimliklar yetkazish  
bo'yicha xizmatlar



*2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida


Urganch sh.	<b>116</b>
Xiva sh.	<b>46</b>
Xonqa t.	<b>32</b>
Urganch t.	<b>31</b>
Qo‘siko‘pir t.	<b>30</b>
Yangiariq t.	<b>25</b>
Xiva t.	<b>25</b>
Gurlan t.	<b>23</b>
Shovot t.	<b>23</b>
Bog‘ot t	<b>18</b>
Yangibozor t.	<b>12</b>
Hazorasp t.	<b>11</b>
Tuproqqal‘a t.	<b>5</b>



2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 21,4 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,4 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 35,5 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 93,4 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 43,1 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 99,4 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>215</b>
Xiva sh.	<b>53</b>
Urganch t.	<b>48</b>
Xonqa t.	<b>44</b>
Gurlan t.	<b>40</b>
Hazorasp t.	<b>37</b>
Xiva t.	<b>35</b>
Shovot t.	<b>35</b>
Qo'shko'pir t.	<b>29</b>
Bog'ot t.	<b>26</b>
Yangiariq t.	<b>22</b>
Yangibozor t.	<b>19</b>
Tuproqqal'a t.	<b>8</b>



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi, ya'ni 531 tasi yoki 86,9 foiz ulushi kichik tadbirdorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'naliishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:


- sog'liqni saqlash yo'naliishiga 94,6 foiz korxonalar to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 100,5 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'naliishidagi korxonalar soni 3,6 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 91,7 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'naliishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 110,0 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>223</b>
Hazorasp t.	<b>161</b>
Xonqa t.	<b>122</b>
Urganch t.	<b>110</b>
Bog‘ot t.	<b>73</b>
Gurlan t.	<b>73</b>
Qo‘shko‘pir t.	<b>68</b>
Shovot t.	<b>66</b>
Xiva sh.	<b>62</b>
Xiva t.	<b>49</b>
Yangiariq t.	<b>29</b>
Yangibozor t.	<b>21</b>
Tuproqqa‘la t.	<b>17</b>




2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 4,0 foizni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o‘sish sur’ati 98,7 foizni tashkil etdi;
- ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining o‘sish sur’ati 107,5 foizni;
- pochta va kuryerlik yo‘nalishi 2,2 marta oshdi;
- havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,5 marta oshdi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy  
shakli bo'yicha umumiylumot  
2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024- yil yanvar oyida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Mas’uliyati cheklangan jamiyat** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlarini bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlarini qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlarini bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.


### Hududlar kesimida

Urganch sh.	43	Xiva t.	15
Hazorasp t.	32	Xiva sh.	15
Urganch t.	30	Tuproqqa'l'a t.	14
Bog‘ot t.	27	Xonqa t.	12
Gurlan t.	27	Shovot t.	10
Qo‘shko‘pir t.	18	Yangibozor t.	10
Yangiariq t.	16		


2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 23 625 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 13 693 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich yashash va ovqatlanishda 114,8 foiz, savdoda 110,3 foiz, axborot va aloqada – 108,8 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 105,5 foiz, tashish va saqlashda – 102,5 foizni tashkil etdi.


### Hududlar kesimida

Urganch sh.	2 659	Bog'ot t.	931
Urganch t.	1 400	Yangiariq t.	906
Qo'shko'pir t.	1 189	Xonqa t.	802
Hazorasp t.	1 161	Shovot t.	651
Gurlan t.	1 099	Tuproqqal'a t.	516
Xiva sh.	1 032	Yangibozor t.	384
Xiva t.	963		


# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2024- yil yanvar oyida, birlikda

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.


2024- yil yanvar oyida sanoatda yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4 taga, yashash va ovqatlanishda 4 taga, tashish va saqlashda 3 taga, qurilishda 2 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	15	Bog‘ot t.	3
Xonqa t.	13	Gurlan t.	3
Shovot t.	8	Xiva t.	3
Urganch t.	4	Yangibozor t.	2

2024- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

116,9%

107,9%

102,5%

104,0%

84,9%

### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2024- yil 1- fevral holatiga 4 889 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'lди: savdo – 42,6 foiz, sanoat – 18,3 foiz, qurilish – 7,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 5,5 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,7 foiz, tashish va saqlash – 2,5 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, boshqa turlari – 11,8 foiz.


### Hududlar kesimida

Urganch sh.	1 225	Xiva sh.	295
Urganch t.	600	Xiva t.	264
Xonqa t.	496	Bog'ot t.	257
Shovot t.	461	Hazorasp t.	97
Yangibozor t.	396	Yangiariq t.	83
Gurlan t.	364	Tuproqqal'a t.	33
Qo'shko'pir t.	318		

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2024- yil yanvar oyida, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.


Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	8	Xonqa t.	5
Shovot t.	7	Hazorasp t.	5
Yangiariq t.	7	Qo‘shko‘pir t.	4
Xiva t.	6	Urganch t.	3
Bog‘ot t.	6	Gurlan t.	1
Xiva sh.	5	Tuproqqal‘a t.	1
Yangibozor t.	5		

2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra 2020- yilning mos davriga nisbatan 2 124 taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi: savdoda – 724 tadan 1 871 taga (o‘sish 1 147 taga), sanoatda – 691 tadan 1 181 taga (o‘sish 490 taga), yashash va ovqatlanishda – 632 tadan 841 taga (o‘sish 209 taga) korxonalar sonining o‘shishi bilan izohlanadi.

### Hududlar kesimida

Urganch sh.	646	Yangiariq t.	333
Urganch t	604	Shovot t.	325
Xiva sh.	534	Yangibozor t.	281
Xonqa t.	484	Hazorasp t.	136
Qo‘shko‘pir t.	447	Gurlan t.	108
Xiva t.	433	Tuproqqal'a t.	49
Bog‘ot t.	422		

2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

185,9%


122,1%

100,0%

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)

103,4%

72,1%



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yetakchi o‘rinni 132 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Turkiya Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 27,3 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyatiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 26,5 foiz), Turkmaniston (ulushi 12,9 foiz), Xitoy (ulushi 6,8 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 3,8 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

### Hududlar kesimida

Urganch sh.	56	Bog‘ot t.	5
Urganch t.	10	Yangiariq t.	5
Xiva t.	9	Shovot t.	4
Xiva sh.	9	Hazorasp t.	4
Xonqa t.	9	Yangibozor t.	4
Gurlan t.	7	Qo‘shko‘pir t.	4
Tuproqqał'a t.	6		

2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda



O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 69 tasi qo‘shma korxonalar, 63 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda

### chet el korxonalar

### qo‘shma korxonalar

**30**

Urganch sh.

**26**

**4**

Xiva sh.

**5**

**2**

Bog‘ot t.

**3**

**3**

Gurlan t.

**4**

**2**

Qo‘shko‘pir t.

**2**

**6**

Urganch t.

**4**

**3**

Hazorasp t.

**1**

**3**

Tuproqqał'a t.

**3**

**4**

Xonqa t.

**5**

**3**

Xiva t.

**6**

**0**

Shovot t.

**4**

**2**

Yangiariq t.

**3**

**1**

Yangibozor t.

**3**

2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
bo‘limi  
Tel.: (62) 22-4-65-11